


GEOGRAFIYA FANIDAN TESTLAR TO'PLAMI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**GEOGRAFIYA
FANIDAN TESTLAR
TO‘PLAMI**

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 91 (076)
KBK 26.8v6
G-35

G-35 Geografiya fanidan testlar to‘plami. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 244 bet.

ISBN 978–9943–998–76–6

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan geografiya dasturi va maktab darsliklari asosida tuzilgan bo‘lib, uning mazmunini «Geografiyaning boshlang‘ich kursi», «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi», «O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi», «O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» «Jahon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kabi fanlardan mavzular bo‘yicha tuzilgan test savollari va ularning javoblari tashkil etadi.

O‘quv qo‘llanma geografiya o‘qituvchilari, maktab, akademik litsey va kollejlarda o‘qituvchilari, talabalari hamda oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 91 (076)
KBK 26.8v6

Mualliflar:

M.Umarova, O‘.Xolmatov, S.Sulaymonov, A.Yusupov

Mas’ul muharrir:

H.Abdunazarov – Geografiya fanlar nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Q.Allanov – TerDU geografiya kafedrasida dotsenti;

S.Xo‘janazarova – Surxondaryo viloyati Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Tabiiy va aniq fanlar ta’limi geografiya fani katta o‘qituvchisi;

M.Barotaliyeva – Termiz shahar 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi.

O‘quv qo‘llanma Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashi-ning 2015-yil 27-iyundagi 6-sonli yig‘ilish qarori asosida nashr etildi.

ISBN 978–9943–998–76–6

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

Respublikamiz hayotida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar xalq ta’limida ham tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda «Ta’lim to‘g‘risida» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish maqsadida oliy va o‘rta maxsus ta’lim, shu bilan birgalikda xalq ta’limi tizimida juda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri, yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarga to‘la javob beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh, Vatanga sodiq va fidoyi kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bunday kadrlarni tarbiyalab yetishtirish o‘quv yurtlari oldiga yangicha mazmunga ega bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishni va birinchi navbatda o‘quv jarayonini tashkil etishda yangi shakl va uslublarni tatbiq qilishni talab qiladi.

Quyidagi test savollari to‘plami ana shu maqsadda tuzilgan bo‘lib, unda «Geografiyaning boshlang‘ich kursi», «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi», «O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi», «O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi», «Jahon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kabi fanlardan maktab darsliklari, geografik atlas va xarita ma’lumotlari asosida mavzular bo‘yicha test savollari va ularning javoblari o‘rin olgan. Bundan tashqari, uni yaratishda har yili oily o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun tavsiya qilinayotgan test savollari mazmuni ham e’tiborga olindi.

5-SINF
TABIY GEOGRAFIYA
BOSHLANG'ICH KURSI

BOSHLANG'ICH TUSHUNCHALAR

- 1. Qadimgi yunon olimi Eratosfen yozgan kitob nomini belgilang.**
A) Geografiyani o'rganish B) Geografiya
D) Tabiiy geografiya E) A va B javoblar
- 2. «Geografiya» atamasini birinchi bo'lib fanga kim kiritgan?**
A) Fales B) Pifagor D) Arastu E) Eratosfen
- 3. Geografiya qanday ma'noni bildiradi?**
A) «geo»-yozaman, «grafo»-yer
B) «geo»-yozaman, «grafo»-tasvirlayman
D) «grafo»-yozaman, «geo»-yer yuzi
E) «geo»-yer, «grafo»-yozaman
- 4. Geografiya fan sifatida rivojlanib borgan sari qanday yo'nalishlar vujudga keldi?**
A) Tabiiy va aholi geografiyasi
B) Tabiiy va iqtisodiy geografiya
D) Umumiy geografiya va o'lkashunoslik
E) Transport va sanoat geografiyasi
- 5. Geografiya fani asosan nimani o'rganadi?**
A) Materiklar geografiyasi va aholisini
B) Mamlakatlar va ularning xo'jaligini
D) Yer yuzasi, tabiati, aholisi va uning xo'jaligini
E) Materiklar va okeanlar geografiyasini
- 6. Qadimgi kishilar bundan necha yil ilgari yerni shaklini chizmada tasvirlashga harakat qilishgan?**
A) 6 ming yil ilgari B) 6,5 ming yil ilgari
D) 7 ming yil ilgari E) 7,5 ming yil ilgari
- 7. Dastlabki xarita qachon tuzilgan?**
A) XIII asr muqaddam B) XIV asr muqaddam
D) XV asr muqaddam E) XVI asr muqaddam
- 8. Dengiz bo'yida yashovchi odamlar yerni nima ko'tarib turadi deb o'ylashgan?**
A) Fillar B) Ho'kizlar shohida
D) Toshbaqa E) Nahang baliqlar
- 9. Eratosfen tuzgan xaritada qaysi dengiz va okean tasvirlangan?**
A) Efiopiya okeani, Eritreya dengizi
B) Efiopiya okeani, Hind dengizi
C) Eritreya okeani, Efiopiya dengizi
E) Barcha javoblar to'g'ri

10. Eratosfen tuzgan xaritada berilgan orollarni belgilang.

- A) Lerne, Tule, Satrabon, Albion
- B) Tule, Satrabon, Albion, Patrobon
- D) Lerne, Satrabon, Albion, Patrobon
- E) Lerne, Tule, Albion, Patrobon

11. Qaysi olim tuzgan xaritada Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Osiyoning g'arbiy qismi tasvirlangan?

- A) Eratosfen
- B) Nosir Xisrov
- D) Ptolemey
- E) Abu Rayhon Beruniy

12. Ptolemey tuzgan xaritasida qaysi daryolar tasvirlangan?

- A) Gang va Ra
- B) Hind va Nil
- D) Nil va Ra
- E) Hammasi

13. Ptolemey tuzgan xaritasida qaysi yarimorol tasvirlangan?

- A) Arabiston
- B) Liviya
- D) Skandinaviya
- E) Hindiston

14. Mahmud Qoshg'ariy qaysi asarida geografik joy va terminlarga izoh yozgan?

- A) «Safarnoma»
- B) «Avlodlar dovoni»
- D) «Devonu lug'atit turk»
- E) «Xusrafning sayohati»

15. Abu Rayhon Beruniy tuzgan dunyo xaritasida tasvirlangan daryoni belgilang.

- A) Varang va Bontus
- B) Bontus va Nil
- D) Varang va Hind
- E) Hind, Nil va Varang

16. O'zbekiston Milliy universitetining «Geografiya» fakultetida o'rnatilgan relyefli globusning o'lchamlarini belgilang.

- A) 2,5 m, 6 m, 490 kg
- B) 2 m, 2,5 m, 490 kg
- D) 2,5 m, 2 m, 490 kg
- E) 2,5 m, 6 m, 500 kg

17. Beruniy tuzgan xaritasida hozirgi qaysi cho'l tasvirlangan?

- A) Nubiya cho'li
- B) Qizilqum cho'li
- D) Arabiston cho'li
- E) Sahroi Kabir cho'li

18. Nosir Xisrov nechanchi yillarda yashagan?

- A) 1008y -1088 yy
- B) 1004 -1084 yy
- D) 1014 -1088 yy
- E) 1004 -1088 yy

19. «2400 yilcha bo'ldi» bu ibora nimaga nisbatan ishlatilgan?

- A) Yer sharsimon, yumaloq bo'lsa kerak, degan g'oya paydo bo'lganiga
- B) Yerda hayot paydo bo'lganiga
- D) Dinavirlar paydo bo'lishganiga
- E) Barcha javoblar to'g'ri

20. Nosir Xisrov qayerlarga sayohat qilgan?

- A) Janubiy Yevropa, Janubiy-g'arbiy Osiyo
- B) Osiyoning g'arbiy qismi va Shimoliy-sharqiy Afrika
- D) Janubiy-g'arbiy Osiyo, Shimoliy-sharqiy Afrika

E) Janubiy Yevropa, Osiyoning g'arbiy qismi

21. Nosir Xisrov 7 yil davomida necha marta sayohat uyishtirib, necha ming kilometr yo'l bosgan?

A) 2, 20 B) 5, 3 D) 3, 15 E) 2, 15

22. Nosir Xisrov qanday asar yozgan?

A) «Devonu lug'atit turk» B) «Safarnoma»
D) «Avlodlar dovoni» E) «Xusrafning sayohati»

23. Xristafor Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi qachon tashkil qilingan?

A) 1942 -yil B) 1492-yil D) 1294-yil E) 1508-yil

24. Fernan Magellan boshchiligidagi ispan sayyohlari qachon va qaysi tomonni aylanib chiqqanlar?

A) 1519-1522 yy. sharqdan g'arbga tomon
B) 1519-1522 yy. g'arbdan sharqqa tomon
D) 1521-1522 yy. g'arbdan sharqqa tomon
E) 1519-1521 yy. janubdan shimolga tomon

25. Zahridin Muhammad Bobur qaysi hududlar tabiati haqida ma'lumotlar to'plagan?

A) Farg'ona vodiysi, Afg'oniston, Hindiston
B) Farg'ona va Zarafshon vodiylari
C) Hindiston, Afg'oniston
E) Hindiston, Afg'oniston va Pomir tog'lari

26. Qachon va qaysi mamlakat sayyohlari tomonidan Antarktida materigi kashf etilgan?

A) 1821-yilda ruslar B) 1912-yilda nemislar
D) 1914-yilda gollandlar E) 1822-yilda ruslar

YER-QUYOSH SISTEMASIDAGI SAYYORA

1. Quyoshga nisbatan joylashuviga qarab sayyoralarni tartib bilan joylashtiring.

1.Yer; 2.Uran; 3.Merkuriy; 4.Neptun; 5.Mars;
6.Venera; 7.Yupiter; 8.Saturn

A) 1, 3, 4, 7, 8, 5, 2, 6 B) 3, 2, 7, 8, 5, 6, 1, 4
D) 3, 6, 1, 5, 7, 8, 2, 4 E) 3, 1, 5, 7, 8, 2, 6, 4

2. Soatiga 1000 km tezlikda uchadigan samolyot necha yilda «Quyoshga yetib boradi»?

A) 5 yilda B) 11 yilda D) 15 yilda E) 17 yilda

3. Yerning o'rtach diametri qancha?

A) 12751 km B) 12576 km
D) 12756 km E) 12675 km

4. Yer sayyorasi Quyoshga yaqin-uzoqligiga ko'ra qaysi sayyoralardan keyin turadi?

- A) Merkuriy, Venera
D) Mars, Venera
- B) Venera, Mars
E) Venera, Pluton
- 5. «Katta Ayiq» yulduz turkumi shakli nimaga o‘xshaydi?**
- A) Ayiqqa
D) Qoziqqa
- B) Cho‘michga
E) Qoshiqqa
- 6. O‘zingiz turgan joyni ufq tomonlariga nisbatan aniqlashga nima deyiladi?**
- A) Oriyentirlash
D) Gorizont
- B) Qutbiy usul
E) Ufq tekisligi
- 7. Yer o‘z o‘qi atrofida qaysi tomonga harakat qiladi?**
- A) Sharqdan g‘arbga tomon
D) G‘arbdan sharqga tomon
- B) Shimoldan janubga
E) A va C javoblar
- 8. Yer o‘z o‘qi atrofini qancha vaqtda aylanib chiqadi?**
- A) 24 soat 6 daqiqa 5 soniyada
D) 23 soat 56 daqiqa 25 soniyada
- B) 24 soatda
E) 23 soat 56 daqiqa 4 soniyada
- 9. Yer aylanish o‘qining yer yuzasi bilan tutashgan ikkita nuqtasiga nima deyiladi?**
- A) Ekvator va Meridian
D) Yerning qutblari
- B) Parallellar
E) Yarimsharlar
- 10. Yer yuzida qutblardan barobar uzoqlikda o‘tkazilgan aylana chiziq.....deb ataladi. Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri javobni joylashtiring.**
- A) Parallellar
D) Meridian
- B) Ekvator
E) Barcha javoblar to‘g‘ri
- 11. Shimoliy va Janubiy qutblarni birlashtiruvchi chiziqqa nima deyiladi?**
- A) Parallellar
D) Meridian
- B) Ekvator
E) To‘g‘ri javob yo‘q
- 12. Quyosh bilan Yer oralig‘i o‘rtacha masofa necha km ni tashkil etadi?**
- A) 150 mln km
D) 100 mln km
- B) 500 mln km
E) 145 mln km
- 13. Soatiga 39600 km tezlikda uchadigan raketa necha oyda «Quyoshga yetib boradi»...?**
- A) 4 oyda
D) 1 yil-u 5 oyda
- B) 5 oyda
E) 1 yilda
- 14. Yer aylanasining uzunligi necha km?**
- A) 40 000 km dan ortiqroq
D) 40 500 km
- B) 45 000 km ga yaqin
E) 41 000 km
- 15. Xaritada meridian va parallellar kesishmasidan hosil bo‘lgan chiziqqa nima deyiladi?**
- A) Tropik chiziqlar
D) Daraja miqdori
- B) Geografik xarita chiziqlari
E) Daraja to‘ri

16. Toshkent va Qohira shaharlari geografik koordinatalarini belgilang.

- A) 40 gradus va 35 gradus B) 40 gradus va 50 gradus
D) 50 gradus va 40 gradus E) 41 gradus va 30 gradus

17. Kiyev shahri necha gradus geografik kenglikda joylashgan?

- A) 30 gradus B) 41 gradus D) 40 gradus E) 50 gradus

18. 30 gradus parallelda joylashgan shaharni toping.

- A) Qohira B) Toshkent D) Kiyev E) Ar-Riyod

19. Yerning qutbiy radiusi ekvatorial radiusidan necha km qisqa?

- A) 10 km B) 15 km D) 21 km E) 18 km

20. Bosh meridian qabul qilingan rasadxona nomini belgilang va u qaysi shaharda joylashgan?

- A) Grinвич, London B) Mirzo Ulug‘bek, Samarqand
D) Ishtra, Moskva E) Pulkova, Sank-Peterburg

21. Toshkent shahri necha gradus sharqiy uzunlikda joylashgan?

- A) 69 ° B) 41 ° D) 40 ° E) 50 °

22. Bahorgi va kuzgi teng kunlikni belgilang.

- A) 22 mart-22 sentabr B) 21 mart-23 sentabr
D) 21 mart-22 sentabr E) 22 mart-23 sentabr

23. Yozgi Quyosh turishi kunini belgilang.

- A) 23-iyun B) 21-iyun D) 22-iyun E) 23-iyul

24. Quyoshning qishgi turish kunini belgilang.

- A) 20-dekabr B) 21-dekabr D) 22-dekabr E) 23-dekabr

25. Tropik chiziqlari nechanchi parallellardan o‘tkazilgan?

- A) 20-25 ° shimol va janub B) 22,5-23,5 ° shimol va janub
D) 23,5-23,5 ° shimol va janub E) 25-25 ° shimol va janub

26. Qutb chizig‘i nechanchi gradusda joylashgan?

- A) 65- gradusda B) 66,5- gradusda
D) 66- gradusda E) 65,3- gradusda

JOY PLANI VA GEOGRAFIK XARITALAR

1. Ufq deb nimaga aytiladi?

- A) Sizdan osmongacha bo‘lgan doira shaklidagi yer
B) To‘rtta oraliq tasvirlangan joy
D) Katta yuzaga chizilgan doira
E) Yer va osmon tutashgan chiziq

2. Masshtab necha xil ko‘rinishda bo‘ladi?

- A) 1 B) 2 D) 3 E) 4

3. Ufq tekisligi deb nimaga aytiladi?

- A) Sizdan ufqqacha bo‘lgan doira shakldagi tekis yerga
B) To‘rtala tomon oralig‘i tasvirlangan yer
D) Katta yuzaga chizilgan aylana shakldagi yer

E) Yer va osmonni tutashtirib turuvchi chiziq

4. «Topografiya» soʻzining maʼnosi nima?

A) «Topos»-joy, «grapho»-yozaman

B) «Topos»-maydon, «grapho»-chizaman

D) «Grapho»-joy, «topos»-yozaman

E) Joyni chizaman

5. Qutb deb nimaga aytiladi?

A) Biz joyda turib, vizirlash oʻtkazgan nuqta

B) Bizdan osmongacha boʻlgan masofadagi vizirlash

D) Yerning uzoq qismiga

E) Barcha javoblar toʻgʻri

6. Nisbiy balandlik deb nimaga aytiladi?

A) Quruqlikning okean sathidan va okeanlar bilan tutashgan dengizlar sathidan tik balandligi

B) Quruqlik yuzasidagi mutlaq balandligi bir xil boʻlgan nuqtalari

D) Yer yuzasining notekisligi

E) Bir joyning ikkinchi joyga nisbatan balandligi

7. Mutlaq balandlik deb nimaga aytiladi?

A) Quruqlikning okean sathidan va okeanlar bilan tutashgan dengizlar sathidan tik balandligi

B) Quruqlik yuzasidagi mutlaq balandligi bir xil boʻlgan nuqtalari

D) Yer yuzasining notekisligi

E) Bir joyning ikkinchi joyga nisbatan balandligi

8. Gorizontallar deb nimaga aytiladi?

A) Quruqlikning okean sathidan va okeanlar bilan tutashgan dengizlar sathidan tik balandligiga

B) Quruqlik yuzasidagi mutlaq balandligi bir xil boʻlgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlarga

D) Yer yuzasining notekisligini tasvirlovchi chiziqlar

E) Bir joyning ikkinchi joyga nisbatan balandligi

9. Gorizontallardagi qiya tomonni koʻrsatuvchi chiziqqa nima deyiladi?

A) Azimut

B) Nivelir

D) Yoʻnalishni koʻrsatuvchi strelka

E) Bergshtrix

10. Qamchiq dovoni dengiz sathidan qancha balandda joylashgan?

A) 400 metr

B) 2799 metr

D) 4643 metr

E) 2267 metr

11. Xaritaning tili nima?

A) Shartli belgilar

B) Turli ranglar

D) Joy nomlari

E) Masshtabi



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3911> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3911> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3911>